

**AMIR TEMUR SALTANATIDA DAVLAT
BOSHQARUV ASOSLARI**

Yuldasheva Xilola

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi
Ilmiy xodimi

Annotation

Ushbu maqolada Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari o‘z davrida uning sultanatini yanada mustahkam bo‘lishiga olib kelgan va hozirgi kunda kundan-kun gullab-yashnab borayotgan Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o‘rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isboti sifatida ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: Buyuk davlat arbobi, diplomat, Temur tuzuklari, adolatli tamoyillar, Temuriylar davlati, musulmon fiqhi qoidalari, Islom qudrati, moliya, iqtisod, insonparvar, qonun-qoida, adolat, tartib-intizom, islomiy-mazhabiy, mo‘g‘ullar.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligi, ma’naviyati o‘zining salohiyati, mazmuni, tarbiyaviy kuchi va ta’siri bilan xalqimiz tarixida alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston o‘zining davlat mustaqilligiga erishgach, uning bir necha ming yillik ijtimoiy-siyosiy tarixini har taraflama o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, markazlashgan Amir Temur sultanati, uning o‘zbek davlatchiligi va madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni masalalariga oydinlik kiritilib, tarixchi,

sharqshunos olimlarimiz ko‘plab birinchi manba ahamiyatidagi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdilar.

Davlatimizning siyosati va xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida»gi qarori, 1995 yil 26 dekabrda esa Prezidentimizning «1996 yilni Amir Temur yili deb e’lon qilish to‘g‘risida»gi farmonlari qabul qilindi. 1996 yil martida «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil qilish xususida, «Amir Temur» ordenini ta’sis etish to‘g‘risida farmonlar chiqdi. YUNESKO qarori asosida Amir Temur tavalludining 660 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. 1996 yil aprelida shu tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohida «Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta’lim ravnaqi» mavzuida ilmiy konferensiya o‘tkazilib, Buyuk davlat arbobining tarixdagi o‘rniga yuksak baho berildi. «Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqei tutmaydi.

Shunga qaramay, fanda uning sultanat taraqqiyotida tutgan siyosiy mavqeyi to‘liq ochib berilmagan. "Temur tuzuklari"da bu xaqda ba’zi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Unda davlat boshlig‘i o‘zini tutishi, qanday asoslarga tayanilganda davlatni mustaxkam boshqara olishi haqida ba’zi yo‘riqnomalar keltirilgan. Jumladan, hukmdor o‘zining qat’iy so‘zi va mustaqil fikriga ega bo‘lishi, masalalar yechimini topishdan avval yon-atrofdagi kishilarning fikrini inobatga olsa-da, so‘nggi so‘zni uning o‘zi hal qilishi, turli gap-so‘zlarga uchmasligi, barcha bilan yaxshi munosabat o‘rnata bilishi kerakligi ta’kidlangan¹.

Amir Temur mamlakatda hukmdor chiqargan buyruq va qarorlar faqat uning ixtiyorida bo‘lishi kerak deb hisoblagan va o‘zining boshqaruv faoliyatida bu qoidaga amal qilgan. Bizningcha, ushbu davlatchilik ta’limoti davlat hokimiyatini amalgaloshirishning muxim usullaridandir.

¹ Ahmedov B “Amir Temur davlatini idora qilish siyosati” / “Amir Temurni yod etib”- Toshkent “O‘zbekiston” – 1996 b. 89

Hukmdor o‘z siyosiy mavqeyini saqlab qolishi uchun uning adolatli va komil inson bo‘lishi yetarli emas, maqsadga erishish uchun uning atrofidagi mansabdorlar ham o‘z kasbining ustasi, fidoyi va halol bo‘lishlari kerak.

Amir Temur o‘zi tayinlagan vazirlar, amaldorlar va sipohiyalar vositasida davlat boshqaruvini amalga oshirganligi uning eng katta yutuqlaridan biridir. Amir Temur ayniqsa, vazirlar tanlash masalasini to‘g‘ri hal qilishga intilgan. U podshoh «qoshida adolatli vazirlar tutsin, toki podshoh zulm qilgudek bo‘lsa, odil vazir uning chorasini topsin. Agarda vazir zolim bo‘lsa, ko‘p o‘tmay saltanat uyi qulaydi»¹.

Hukmdor davlat qudratining ramzi bo‘lganligi sabab uning ozgina salbiy hatti-harakati ham ommaga tez ta’sir etadi. Uning har qanday masalada adolatli, rahmdil va mexribon bo‘lishi hamda qonunlarning ijrosini ta’minlay bilishi yutuqlariga kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixiy saboqlar shaxsan Amir Temurning o‘zi va oilasi qonunlar ijrosini ta’minalashda xalqqa o‘rnak bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Amir Temur boshidanoq boshqaruvi jilovini o‘z qo‘lida mustahkam ushlagan bo‘lsa ham xokimiyatni o‘z xodimlariga bo‘lib berish, ammo ularning ustidan nazorat o‘rnatish yo‘lidan borgan. Bundan Amir Temurning mamlakat ichkarisidagi muxolif kuchlarga nisbatan qo‘llagan taktikasini anglab yetish mumkin. Uning fikriga ko‘ra “saltanat ishlarini ishonchli va mo‘tabar bir necha kishiga bo‘lib berish lozim. Shunda har biri o‘z ishiga bog‘lanib, saltanat taxtiga ko‘z olaytira olmaydi. Bundan Amir Temur o‘sha davrdayoq xokimiyatning bo‘linish tamoyili boshqarishni tashkillashtirishning maqbul usullaridan ekanini anglab yetgani, uning davlatchiligidagi ana shunday kurtaklar mavjud ekanini anglash mumkin.

Har taraflama mustaxkam, qudratli davlatni barpo etish uchun albatta bilimli, yuksak axloqiy sifatlar egasi, nozikta’b, sezgir, tezkor, mushkul vaziyatlarda ham o‘z maqsadini amalga oshiradigan tadbirkor, nizo va kamchiliklarni bartaraf eta biladigan, insonning ruhiyatini anglay oladigan, boshqaruvi ilmi egasi bo‘lgan irodali, kuchli shaxs davlatni boshqarishi talab etiladi. Amir Temur o‘z davrining ana shu talab va

¹ “Temur Tuzuklari” Toshkent “Yangi nashr” – 2019

extiyojlariga javob bera olgan davlat arbobi edi. U davlat boshlig‘ini davlat va xalqning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishdagi asosiy vositachi deb bilgan. Yaxshi hukmdor davlat tepasiga kelsa “atrof-tevarakdagi fasodchilar tama’ qilishni tark etib, itoatu bo‘ysunish yo‘liga kiradilar^{“1-}, deb ta’lim bergen.

Amir Temur qat’iyat bilan o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishgan, davrining eng zukko kishilarini pirlari deb tan olgan, olimlarning yordamiga tayangan. U o‘ziga muxolifatda bo‘lgan dushmanlarining kuch va imkoniyatlaridan davlat taraqqiyoti yo‘lida foydalangan.

Sohibqiron sultanat va qo‘shni mamlakatlarda sodir bo‘layotgan voqeа xodisalarni sergaklik bilan kuzatgan hamda extimoli bo‘lgan xavf-xatarlarni oldini olgan.

Amir Temur biror ishni boshlasa doimo uni muvaffaqiyatli yakunlashga intilgan. Moliyaviy siyosatni to‘gri yuritgani ham uning muvaffaqiyatlariga zamin bo‘lib xizmat qilgan. U kirim va chiqimlarni, sarf-xarajatlarni me’yorida olib borgan, yo‘qsillarga doimiy ravishda xayr-exsonlar in’om etib turgan, ilm-fanga homiylik qilgan.

U dunyoning eng yirik sultanatlaridan birini barpo etgan qudratli hukmdor bo‘lsada, umrining oxirigacha sofdil va kamtarin inson bo‘lib qolgan.

Amir Temurning davlat rahbari sifatda o‘zi tuzgan davlat taraqqiyotida bemisl o‘rni bor. Ushbu saboqlar "davlat boshlig‘i mukammal davlat qurishning muxim vositasi bo‘lib, u davlat ijtimoiy-siyosiy organizmining yuragi hisoblangan va barcha olib borilgan isloxoqlar bevosita Amir Temurning raxbarlik salohiyati orqali amalga oshirilgan. Bu noyob iqtidor va fidoiylik Amir Temur siyosiy mavqeining mustahkamlanishiga zamin bo‘lib xizmat qilgan", - degan xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi.

Temurning siyosiy-huquqiy qarashlari uning axloqiy qarashlari bilan asoslanadi va diniy axloq ustiga quriladi. Shuning uchun ham Temur nazarida har qanday siyosatning muvaffaqiyati podshohning o‘z fuqarolariga bo‘lgan rahmdilligi, saxovatida-dir. Qur’onda «Taxlaku bi-axloq Alloh» deyilganidek, – deb yozadi Temur,

¹ Низомиддин Шомий “Зафарнома” III АРҚ Т— 1997 6 81

– agar podshoh, biror gunohkorning gunohini kechirsa, bu bilan fuqarosiga rahm qilgan bo‘ladi. Mening barcha ishlarimda ana shunday podshohlar menga ibrat bo‘ldi»¹.

Temur o‘z siyosatida ham adolat, haqqoniylik, odillikka tayanib ish tutdi. Chunki o‘z siyosatida haq yo‘lini tanlagan. Temur bundan boshqa siyosat yuritishi mumkin emas edi. U nimaiki qilsa, shariat doirasida, musulmon fiqhi qoidalariga tayanib, umuman Islom qudrati bilan ish tutdi. Bu esa Temurning o‘z piri Abu Bakr Toyibodiyning «rosti-rasti» ya’ni«haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan» hikmatini, Ibn Arabshohning yozishicha, Temur o‘z tamg‘asiga muhr sifatida o‘rnashtirgan edi.

Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi bo‘lganligi hamda uning sifatlari haqida juda ko‘p mualliflar o‘z fikrlarini aytganlar. Ammo aynan uni ko‘rib, suhbat qilgan kishilar Ibn Xaldun, don Klavixo hamda Temurning maslahatchisi va, ayniqsa, g‘arb mamlakatlariga yuborilgan xristian elchisi Ioann Fransiskning, hozirda Parij milliy kutubxonasida saklanayotgan xotiralari, ayniqsa, qimmatli, ishonchli dalildir. «Amir Temur fors, arab va turk tillarini biladi. Qur’on ilmi va Islom huquqshunosligi ilmida shu qadar kuchli olimki hech bir musulmon olimi u bilan munozara kilishga qodir emas, u olim va shoirlarga katta hurmat ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, uning o‘zi olim va donishmanddir»².

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, buyuk sarkarda Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari o‘z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo‘lishiga olib kelgan. Hozirgi kunda kundan-kun gullab-yashnab borayotgan Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o‘rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isbotidir. Bu esa xalqimiz kelajagi uchun adolatli turmush tarzi yaratib berish yo‘lida qilinayotgan say-harakatlarning samarasidir.

¹ Muiniddin Natanziy. Muntahab at- tavorix. –Toshkent, 1991.-258 b.

² Bo‘riyev O - “Termuriylar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo” Toshkent “O‘zbekiston” – 1997 b.116

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Temur Tuzuklari” Toshkent “Yangi nashr” – 2019
2. Ahmedov B “Amir Temur davlatini idora qilish siyosati” / “Amir Temurni yod etib”- Toshkent “O‘zbekiston” – 1996
3. Bo‘riyev O - “Termuriylar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo” Toshkent “O‘zbekiston” – 1997
4. Muiniddin Natanziy. Muntahab at- tavorix. –Toshkent, 1991.-258 b.
5. Низомиддин Шомий “Зафарнома” III АРҚ Т— 1997 6 81